

**THE THEMATIC SCOPE OF WOMEN'S POETRY IN UZBEK
LITERATURE. A LOOK AT THE WORK OF CONTEMPORARY
POET FARIDA AFRUZ**

Egamberdiyeva Mohina

4th- year student, uzbek language and literature, faculty of humanities and languages,
Kokand state university

Abstract: This article discusses women's poetry, which holds a special place in Uzbek literature, the history of its study, women poets who have left a bright mark in our literature from classical literature to the present day with their rich creative heritage, and the scope of themes in the works of these poets. At the same time, information will be provided about the work of our contemporary poet of the independence period, the talented creator Farida Afruz, and the world of themes in her poems.

Keywords: Uzbek literature, classical literature, modern literature, poetry, women's poetry, classical genres, modern genres, thematic scope, meter, rhyme.

O'zbek adabiyotida ayollar she'riyati mavzular ko'lami

(Farida Afro'z ijodi misolida)

Egamberdiyeva Mohina

Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Haydarova Gulhayo

Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi(PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ayollar she'riyati, bu she'riyatning o'rganilish tarixi, mumtoz adabiyotimizdan to bugungi kunga qadar adabiyotimizda o'zining boy ijodiy merosi bilan yorqin iz qoldirib kelayotgan ayol shoirlar hamda ular ijodidagi mavzular ko'lami haqida so'z boradi. Shu bilan birga mustaqillik davri shoirasi bo'lmish zamondoshimiz, mahoratli

ijodkor Farida Afro'z ijodi va she'rlaridagi mavzular olami borasida ham ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, she'riyat, ayollar she'riyati, mumtoz janrlar, zamonaviy janrlar, mavzular ko'lami, vazn, qofiya.

She'riyatning o'ziga xos uslub, o'ziga xos his-kechinma va o'ziga xos obrazlariga ega bo'lgan bir guruh a'zolari mavjud – ular ayol shoiralardir. Ayol shoiralari, umuman, ayollar she'riyati adabiyotimizda alohida e'tiborga molik yo'nalish hisoblanadi. She'riyatda ayol shoiralarga e'tibor masalasi bugun paydo bo'lib qolgan gap emas. Bu yo'nalish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayollar she'riyati uslub, mavzu, g'oya va ularning ifoda talqini borasida ham ajralib turadi. Ularning xilqatida noziklik ufurib turadi. Har bir ayol atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan tuyg'ular, his-kechinmalar bilan javob qaytaradi. Shoira ayollarda esa bunday holat yuqori cho'qqiga chiqqan bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, ayollar she'riyati, ularning uzoq o'tmishdan to bugungi kunga qadar bo'lgan rivoji masalasi alohida muhim mavzu sanaladi. Ayollar she'riyati haqidagi qarashlar, ularning ijodiga bo'lgan e'tibor va e'tirof qadim davrlardan yuzaga kelgan. Buning yorqin namunasini Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"¹ tazkirasida tilga olingan ayol shoiralari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu tazkira 1491–1498-yillarda yaratilgan bo'lib, XV asrda yashab ijod qilgan 459 nafar shoirning hayoti va ijodiy merosi haqida muhim ma'lumotlarni jamlagan. Asarda Navoiy nafaqat erkak shoirlar, balki ayol ijodkorlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi, ularning ijodiy salohiyati, zamondoshlari bilan aloqalari va she'riy merosi haqida ham muhim ma'lumotlar berib o'tadi.

Shunga qaramay, Sharq musulmon muhitida XV asrgacha bo'lgan davrda ayol shoiralari faoliyati mustaqil kitob shaklida tizimli ravishda yoritilmagan. Ular haqidagi ma'lumotlar, asosan, umumiy tazkiralar, zamima (qo'shimcha) qaydlar yoki ayrim

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildli), 13-jild. Toshkent: 1997.

tarixiy-badiiy manbalar tarkibida uchraydi. Demak, ayol ijodkorlar merosi alohida ilmiy-adabiy obyekt sifatida emas, balki umumiy adabiy jarayonning bir qismi tarzida qayd etib kelingan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran esa, ayol shoiralarga bag'ishlangan maxsus tazkiralar yaratish an'anasi shakllana boshlaydi. Bu yo'nalishdagi dastlabki namunalardan biri "Javohir ul-ajoyib"² asaridir. Mazkur tazkira Faxri Hiraviy tomonidan 1554-1555-yillarda tuzilgan bo'lib, muallif "Majolis un-nafois"ni fors tiliga tarjima qilgani hamda bir necha tazkira asarlari yaratgani bilan ma'lum. Asar tuzilish jihatidan debocha va asosiy qismdan iborat bolib, unda 31 nafar ayol shoira hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar jamlangan.

Navoiy davridan so'ng Qo'qon xoni Amir Umarxon davrida yuzaga kelgan Qo'qon adabiy muhiti barcha shoir va ijodkorlar qatori ayol shoiralarga uchun ham muhim kamolot o'chog'i bo'lib xizmat qildi. O'zi ham Amiriyl taxallusi bilan ijod qilgan Amir Umarxon Qo'qon adabiy muhiti zamirida ko'plab ijodkorlarga shart-sharoitlar yaratib berdi. Buning natijasida o'z iste'dodi bilan tanilgan Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi ayol shoiralarga yetishib chiqdi. Bu shoiralarning ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo'lsa ham, ijodiy yondashuv jihatdan muayyan badiiy-g'oyaviy mushtaraklik ko'zga tashlanadi.

Qo'qonda adabiy muhit taraqqiy etgan bo'lsa-da, mamlakat ichki nizolari, taxt uchun bo'layotgan kurashlar hamda adolatsizliklar xalqning tinkasini quritgani bois, ushbu muhitda yashab, ijod qilgan ayol shoiralarga atrofdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmasdan, o'z ruhiy kechinmalarini she'rlarda aks ettira olganlar. Bunday shoiralardan biri xonning rafiqasi bo'lgan malika Nodirabegim bo'lib, u davrning adolatsizliklariga befarq bo'lmay, turmush o'rtog'i Amir Umarxonga maslakdosh bo'ldi va hukmdorni

² Faxri Hiraviy. Javohir ul-ajoyib. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2014.

adolatli, rahm-shafqatli bo‘lib, xalq dardi bilan yashashga undagan. Buning isbotini Nodira ijodidan keltirilgan quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

Fuqaro holig‘a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmat-u saltanat-u raf‘at-u shon barcha abas.
Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,
Yo‘q esa qoidayi amn-u omon barcha abas.³

Qo‘qon adabiy muhitidagi ayol shoiralarning yana bir iste‘dodli vakili Jahon otin Uvaysiy bo‘lib, u ham o‘z ijodida davr ijtimoiy muhitini tanqid ostiga olgan va zamondoshlarining dardga to‘la kechinmalarini aks ettirgan:

Zamona kulfatidin bu ko‘ngil dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngil dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.
Jarohat bo‘ldi bag‘rim tig‘i bedodi raqiblardin,
Bu ko‘tohfahm mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.⁴

Ayol shoirlar ijodi yangi pog‘onaga ko‘tarilgan davr sifatida XX asrni ko‘rishimiz mumkin. Bu davrda ham ijtimoiy-siyosiy hayotdagi murakkabliklarga qaramay o‘z ijodi, iste‘dodi bilan tanilgan ayol shoirlar bisyor. XX asrning ko‘proq ikkinchi yarmidagi ayollar she‘riyatini Halima Xudoyberdiyeva, Zulfiya, Saida Zunnunova va Oydin Hojiyeva kabi bir qator o‘zbek shoiralari asarlari misolida ko‘ra olamiz.

Halima Xudoyberdiyeva she‘rlari o‘tgan asr o‘zbek she‘riyatida ayollik, insoniylik va vatanparvarlik mavzularini ilgari suruvchi namuna sifatida qabul qilinadi. Uning she‘rlari zamondosh adabiyotga nisbatan o‘ziga xos uslub bilan ajralib turadi: badiiy tafsilotlar orqali ruhiy holatlarni tasvirlash, so‘z va gap tuzilmasidagi ritmik ohang, uning ijodiy xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, ijodkorning quyidagi she‘riga e‘tibor qaratsak:

³ Nodira. Devon. Toshkent: 1963.

⁴ Uvaysiy. Devon. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent: 1963.

Essiz, zilol daryolar
Biz qonib ichmasak hayf.
Essiz moviy ma'volar,
Biz qonib uchmasak hayf.
Irmoq pastlab, qiyalab
Ketsa, uchqur tog', essiz.
Ko'rmay o'tsa biyalar
Uchkur arg'umoq, essiz!
Dunyasiga o't ketsin,
Dunyasiga ertak hayf.
Unda ko'ngli ayolsiz
Ketayotgan erkak hayf.⁵

Keltirilgan she'r ham shoiraning yuqorida tilga olingan xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Avvalo, she'rning bosh g'oyasi — hayot ne'matlarining qadriga yetish, insoniy tuyg'ularni boy bermaslik va ayniqsa, ayollik mehrisiz hayotning ma'nosizligi haqidagi fikrni ilgari surishdan iborat. Shoira tabiat obrazlari orqali inson hayotidagi imkoniyatlar va ularning qadrsiz qolishini achinish bilan tasvirlaydi. Oxirgi bandda esa fikr keskin ijtimoiy-ma'naviy mazmunga ko'chadi: "ko'ngli ayolsiz ketayotgan erkakka hayf" aytilishi orqali ayol mehri, muhabbati va ruhiy uyg'unliksiz hayot to'laqonli emasligi ta'kidlanadi. Ijodkor badiiy tafsilotlar — tabiat manzaralari orqali insonning ichki ruhiy holatini ochadi. Ya'ni tashqi manzara ichki kechinmaga ko'chadi. Shu bilan birga, misralardagi qisqa, ritmik va ohangdor tuzilish she'rga musiqiylik bag'ishlaydi. Bu esa uning poetik uslubining muhim belgilaridan biridir. Bunday o'ziga xosliklarni shoiraning deyarli barcha she'rlarida kuzatishimiz mumkin. Birgina Halima

⁵ Halima Xudoyberdiyeva. Saylanma. Toshkent, "Sharq". 2000. 396-bet.

Xudoyberdiyeva emas, balki o'sha davr o'zbek shoirlarining barchasi XX asr adabiyotimiz manzarasiga o'z chizgilarini go'zal tarzda muhrlaganlar.

Umuman olganda, XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida ayol shoirlarning tutgan o'rni alohida estetik va ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda ijod qilgan shoirlar nafaqat ayollar she'riyatining mavqeini, balki milliy adabiyotimiz ravnaqini ham mustahkamlashga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Ularning ijodi orqali ayol ruhiyati, ichki "men"i, ijtimoiy va ma'naviy pozitsiyasi mustaqil poetik konsepsiya darajasiga ko'tarildi. Yuqorida nomlari tilga olingan shoirlarni birlashtirib turuvchi eng muhim jihat — ayol qalbining teran va samimiy tasviri, ruhiy kechinmalarning falsafiy hamda estetik talqini hisoblanadi. Ularning she'rlarida ayol obrazi passiv kuzatuvchi emas, balki his qiluvchi, tafakkur yurituvchi va hayot jarayonlarida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida gavdalanadi. Boisi bu davrda ayollar ijtimoiy hayotda ham ko'plab qiyinchiliklarga duch kelgan, millat hayotida o'z o'rnini topishga intilayotgan muhitda yashar edilar. Mustaqillikka qadar ular kurashlar va bosim ostida yashadilar, biroq shunday muhitda ham Vatanga, oilaga sadoqatni yo'qotmadilar. Shuning uchun ham ushbu davr ijodkorlari she'riyatida Vatan, onalik, muhabbat, sadoqat, matonat kabi umuminsoniy qadriyatlar ayol nigohi orqali yuksak badiiy darajada ifoda etildi. Urush va ijtimoiy sinovlar, davr murakkabliklari, ruhiy iztiroblar ham aynan ayol qalbidan o'tkazilib, yangi estetik mazmun kasb etdi. Natijada ayollar she'riyati milliy adabiyotimizda nafaqat mavzu ko'lamini kengaytirdi, balki poetik ifoda imkoniyatlarini ham boyitdi.

Ayollar she'riyatidagi navbatdagi yangi bosqich bu albatta, mustaqillik davri hisoblanadi. Mustaqillik davridagi ayol shoirlar ijodi chinakamiga yangicha tus oldi: mavzu ko'lamini kengaytdi, tuyg'ular ifodasi oydinlashdi, ijod qanotlari erkin parvoz qilishga shaylandi, bir so'z bilan aytganda istiqloq davri boshlandi. Bu davrda adabiy maydonga kirib kelgan ayol shoirlar avvalgi an'analarni davom ettirgan holda, poetik

tafakkurga yangicha ruh, erkinlik va individual “men”ini olib kirdilar. Ularning ijodida ayol ruhiyati, zamon nafasi, shaxsiy iztirob va ijtimoiy ong uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Bunday iste’dodli ijodkorlar qatoriga Farida Afro‘z, Zebo Mirzo, Go‘zal Begim va Zulfiya Mo‘minova kabi shoirlarimizni kiritishimiz mumkin. Istiqlol yillarida bunday ayol shoirlarning she‘riyati faqat shaxsiy hissiyot va sevgiga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy muammolar, insoniy adolat, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira kabi mavzularni ham qamrab oldi. Shu jihatdan ularning ijodi nafaqat san‘at, balki ma‘naviy va axloqiy tarbiya manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davri ayollar she‘riyatining yetuk va o‘ziga xos ovozga ega vakillaridan biri — Farida Afro‘z (Bo‘tayeva Farida)dir. U 1956-yil 5-martda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan bo‘lib, 1994-yildan buyon O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Shoiraning ijodi istiqlol yillarida yanada sermahsul bosqichga kirganini kuzatish mumkin.

Farida Afro‘zning “Qirq kokilligim”, “Iztirob ko‘ylagi”, “Tunlar isyoni”, “Ko‘zim manim...”, “O‘zimdan o‘zimgacha”, “Tasbih”, “O‘sha kun — bugundir” kabi she‘riy to‘plamlari, shuningdek, “Qurbonjon dodxoh” tarixiy dramasi uning ijodiy ko‘lamining kengligini ko‘rsatadi. Asarlarining rus, turk, ingliz, nemis, fransuz, fors, uyg‘ur, ozar, gagauz, xitoy, koreys tillariga tarjima qilingani shoira ijodining xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilganidan dalolat beradi.

Farida Afro‘z poetikasining markazida so‘zga bo‘lgan ehtirom va mas‘uliyat turadi. Shoira nazarida ijod tasodifiy mashg‘ulot emas, balki ilohiy ato — shavqdir. U so‘z, she‘r va shavqni shoir “men”ini tashkil etuvchi uch qudrat sifatida talqin qiladi. Bu qarash uning she‘rlarida ham yaqqol seziladi: har bir satrda ichki mas‘uliyat, so‘zning og‘irligi va ma‘naviy yukini his qilish mumkin.

Nima qildim ellikka kirib,

Yarim asr qanday yashadim?

Qay armonning ko‘ksini tilib,
Qay mehrga jonim to‘shadim?!
Nima qildim sarson, sargardon,
Qay bir ruhning rohati bo‘ldim?
Bo‘loldimmi, zulmatda bir sham,
Qay bag‘irda oy bo‘lib to‘ldim?!
Shukrim bormi, qultum suv ichib,
Rozimanmi, burda nonimga?
Tashladimmi kibor libosim,
Loyiqmanmi, ajdod nomimga?⁶

Farida Afro‘z ijodi mustaqillik davri o‘zbek ayollar she‘riyatida chuqur falsafiylik, ichki kechinmalarni samimiy va mas‘uliyat bilan ifodalash xususiyati bilan ajralib turadi. Keltirilgan she‘r ham shoira poetikasining ana shu jihatlarini yorqin namoyon etadi.

Avvalo, she‘rning bosh g‘oyasi — insonning o‘z umr yo‘liga nazar tashlab, o‘z hayot yo‘lini hisob-kitob qilishi, yashab o‘tilgan hayotning mazmuni va ma‘naviy qiymatini anglashga intilishidir. “Ellikka kirib” iborasi orqali umrning muhim bosqichida turib, o‘tgan hayot sarhisob qilinadi. Shoira “nima qildim?”, “qanday yashadim?” kabi savollar orqali o‘z “men”ini tahlil qiladi. Bu — oddiy savol emas, balki hayotning ma‘naviy mezonlari oldida javob izlashdir.

She‘rda ayollik va insoniylik masalasi ham chuqur ifodalangan. “Qay mehrga jonim to‘shadim?” misrasi orqali ayol qalbining fidoyiligi, mehr berish ehtiyoji aks etadi. Shu bilan birga, bu mehrning qanchalik o‘rinli yoki samarasiz bo‘lgani haqida ichki shubha mavjud. Bu esa shoira ijodidagi ayol ruhiyatining murakkab va ziddiyatli holatini ko‘rsatadi.

⁶ Farida Afro‘z. Ko‘zim manim. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent: 1999.

Badiiy tasviriy vositalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ritorik savollar she'rning asosiy qurilish usulidir. Har bir band savollar orqali qurilib, ichki iztirob va o'z-o'zini so'roq qilish kayfiyatini kuchaytiradi. She'rda shoira uchun muhim bo'lgan so'zga mas'uliyat yaqqol seziladi. Har bir satrda tasodifiylik yo'q — aksincha, har bir savol chuqur ma'naviy yukni ko'taradi. Shoira ijodni “ilohiy ato” deb bilganidek, bu she'rda ham har bir so'z o'lchab, his etib qo'llangan.

Xususan, oxirgi banddagi:

“Shukrim bormi...?”

“Rozimanmi...?”

“Loyiqmanmi ajdod nomimga?”

kabi savollar insonning nafaqat shaxsiy, balki milliy va ma'naviy mas'uliyat oldidagi o'rnini ham ko'rsatadi.

Shoiraning bunday darajaga yetishi bolalik yillaridan kurtak yoza boshlagan. Uning bolalik xotiralari — hovli etagidagi ariqda oqayotgan sariq behilar manzarasi — uning poetik tafakkuri tabiat va hayratdan oziqlanganini ko'rsatadi. U she'rni oddiy nutq emas, “hayrat tili” deb biladi. Bu jihat uning lirikasiga samimiylik va tabiiylik baxsh etadid. Farida Afro'z ijodida yana bir muhim qatlam — tasavvufiy ruh va ichki oshiqlik kayfiyatidir. Onasidan meros bo'lgan sabr, Yaratganga muhabbat, taqdirga taslimlik g'oyalari uning she'rlarida falsafiy teranlik hosil qiladi. Shoira uchun qalb — ezgu tuyg'ular saltanati, she'r esa ana shu qalbning pok ifodasidir.

Shuningdek, u adabiyotga ma'naviy ibodatgoh sifatida qaraydi. Nodirabegim, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi siymolar oldida rost so'z aytish zarurligini ta'kidlashi uning ijodiy prinsipini belgilaydi: so'zga xiyonat qilmaslik. Yoshlarning og'ir, fojiviy ma'noli so'zlarni bepisand ishlatishidan tashvishlanishi ham shoiraning so'z qudratiga bo'lgan e'tiqodidan kelib chiqadi.

Tarjimon sifatida ham u jahon adabiyotiga murojaat qilgan: yapon xokkulardan tortib turk va fors she'riyati namunalari, hatto ruhshunos Deyl Karnegi asarlarini o'zbek tiliga o'giran. Bu esa uning badiiy tafakkuri milliylik bilan birga umumbashariy manbalardan ham oziqlanishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Farida Afro'z mustaqillik davri ayollar she'riyatida so'zning ma'naviy mas'uliyatini chuqur his etgan, tasavvufiy-falsafiy qatlamni zamonaviy lirika bilan uyg'unlashtira olgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'riyati samimiyat, ruhiy izlanish va so'zga sadoqat tamoyillari bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX asrlar). O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent: 2006. 272 bet.
2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. "Yangi nashr" nashriyoti. Toshkent: 2010.
3. Jalolov T. O'zbek shoiralari. O'zdavnashr. Toshkent: 1959.
4. Farida Afro'z. Ko'zim manim. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent:1999. 118 bet.
5. Farida Afro'z. Kuzdan arazladim. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent: 2017.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildli), 13-jild. Toshkent:1997.
7. Faxri Hiraviy. Javohir ul-ajoyib. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2014.
8. Nodira. Devon. Toshkent: 1963.
9. Uvaysiy. Devon. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot v san'at nashriyoti. Toshkent: 1963.
10. Halima Xudoyberdiyeva. Saylanma. Toshkent, "Sharq". 2000.
11. "Til va adabiyot ta'limi" elektron jurnali. 2023-yil.1-son.14-bet.
12. <https://kh-davron.uz/> sayti.